

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

K.Kodirov	
O'zbekiston Respublikasida mahkumlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish	118
B.Jumayev	
Gastronomik turizm tushunchasining paydo bo'lishi va uning tarixiy asoslari.....	122
U.Usarov	
Rossiya imperiyasi rasmiy amaldorlari va taftish komissiyalarining Turkistondagi yer-suv munosabatlariga doir faoliyatiga oid ba'zi mulohazalar.....	129
SH.Tosheva	
VIII – XII asrlarda O'rta Osiyo shaharlarida kasbiy o'zlikning o'ziga xos xususiyatlari	133
	ADABIYOTSHUNOSLIK
A.Sabirdinov	
Tuganmas ilhom manbai	138
Q.Yo'ldiyev	
Lirik janr haqida ba'zi mulohazalar	142
G.Mashrapova	
Safar semantikasi va genezisiga doir ayrim mulohazalar	148
SH.Jumanova	
Usmon Azim she'riyatida kuz motivi	151
E.Shevchenko	
O'zbek adabiyot sharhi: boshlanish davridan hozirgi kungacha	155
G.Nazarova	
Ingliz hamda o'zbek adabiyotida mifologik obrazlarning mifologizatsiyasi va ularning o'ziga xosligi.....	161
D.Xusenova	
Lev Tolstoyning hayoti va ijodiy faoliyatida sharqning o'rni.....	165
	TILSHUNOSLIK
X.Maxsudova, SH.Shahobiddinova	
Эргонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари	169
N.Achilova	
Nemis va o'zbek tillarida faunaga oid frazeologizmlar tasviri.....	173
Sh.Sultonova, O.Usmonov	
Diniy frazeologizmlarning ichki shakli dinamik hodisa sifatida	178
Z.Akbarova, G.Sodiqova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning psixofiziologik va psixolingvistik asoslari	182
I.Saydamatov	
Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	186
Sh.Amonturdieva	
Diniy uslubni yuzaga keltiruvchi ekstralingvistik omillar	191
M.Batirxanova	
Somatik frazeologizmlarning tarjima masalalarida pragmatik funksiyalarining tadqiqi	195
N.Djalilova	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida talabalarni chet til o'qitish kommunikativ kompetensiyasi	199
A.Zinatullina	
O'zbek va fransuz tillarini tarjima qilishdagi qiyinchiliklar	203
	MATEMATIKA
A.O'rinov, M.Azizov	
Yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun to'g'ri to'rtburchakda boshlang'ich-chegaraviy masala	207
K.Xalilov	
Singulyar koeffitsiyentli parabolo-giperbolik tenglama uchun integral shart va Bitsadze-Samarskiy sharti qatnashgan masalalar.....	225
T.Xasanov	
Davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida manbali yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasiga qo'yilgan koshi masalasi.....	232

VIII – XII ASRLARDA O'RTA OSIYO SHAHARLARIDA KASBIY O'ZLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ГОРОДАХ СРЕДНЕЙ АЗИИ В VIII - XII ВВ

CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL IDENTITY IN CENTRAL ASIAN CITIES IN THE VIII - XII CENTURIES

Tosheva Sharifa Panoyevna¹¹Tosheva Sharifa Panoyevna

– O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi milliy arxeologiya markazi kichik ilmiy xodimi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'rta Osiyoda islom dinning yoyilishidan boshlab rivojlangan o'rta asrlargacha bo'lgan davr ichida mintaqa aholisining o'zliklarida, xususan, kasbiy o'zligida hunarmandchilik bilan bog'liq o'zgarishlar to'g'risida so'z boradi. Qariyb besh yuz yillik davr mobaynida O'rta Osiyoning yirik shaharlaridagi yerlik aholining, ayniqsa, hunarmandlarning yangi mafkuraga moslasha borib, qadimiy mahalliy va islomiy an'analarni o'zaro omuxtalashtirgan holda hunarmandchilikni yangi bosqichga olib chiqqanliklari tahlil qilinadi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются связанные с ремеслами изменения в идентичностях народов региона, особенно их профессиональной идентичности, в период от распространения ислама в Средней Азии до развитого Средневековья. На протяжении почти пятисот лет анализируется, что коренные народы крупных городов Средней Азии, особенно ремесленники, вывели ремесла на новый уровень, адаптировав древние местные и исламские традиции к новой идеологии.

Abstract

This article discusses the changes related to handicrafts in the identities of the people of the region, especially their professional identities, during the period from the spread of Islam in Central Asia to the developed Middle Ages. For nearly five hundred years, it has been analyzed that the indigenous peoples of the major cities of Central Asia, especially the artisans, brought handicrafts to a new level by adapting ancient local and Islamic traditions to the new ideology.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, shahar, islom, an'anlar, o'zlik, milliy, etnik, kasbiy o'zliklar, hunarmandchilik, kosiblar.

Ключевые слова: Средняя Азия, город, ислам, традиции, идентичность, национальная, этническая, профессиональная идентичность, ремесла, ремесленники.

Key words: Central Asia, city, Islam, traditions, identity, national, ethnic, professional identities, crafts, artisans.

KIRISH

VIII – XII asrlarda O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlar ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayotida yirik o'zgarishlar yuz bergan hudud sifatida xarakterlanadi. Qariyb besh yuz yillik bir vaqt pallasini qamrab oladigan bu davrda dastlab arab istilosi va mintaqa aholisi katta qismining islom dinini qabul qilishi, O'rta Osiyo va Old Osiyo o'lkalari orasida intensiv aloqalarning yo'lga qo'yilishi, keyinroq esa ilk mahalliy musulmon sulolalarning, shu jumladan, turk-islom davlatlarining tarix sahnasiga chiqishi mintaqa halqlarining ijtimoiy-madaniy hayotida katta o'zgarishlar bo'lishiga olib keladi. Bu holat ayniqsa O'rta Osiyo shaharlari aholisining kasbiy o'zligida ham o'z ifodasini topadi. Demak, tarix, arxeologiya, sotsiologiya va psixologiya fanlarining yangi metodologiyalariga tayangan holda arablar bosqinidan keyin O'rta Osiyoda shaharlarda urbanistik jarayonlar qay tarzda kechgani, shaharlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, hunarmandlar jamoalari, diniy jamoalar va turli o'zliklar, ayniqsa professional o'zlik shahar hayotida va insonlar turmush tarzi, tafakkurida qanday o'zgarishlarga olib kelganini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimiz hududida keyingi yuz yildan oshiqroq vaqt davomida V. Bartold, O. Bolshakov, A. Yakubovskiy, S. Tolstov, Y. Nordström O. Pugachenkova, A. Asqarov, A. Anorboev, M. Mirzahmedov kabi arxeolog olimlarning qazishmalari natijasida o'rta asr shaharlarining joylashgan hududi (lokalizatsiyasi), ularning o'lchamlari (topografiyasi) va shaharlarida urbanizatsiya jarayonlariga oid nihoyatda katta ilmiy yutuqlarga erishildi va zalvorli ilmiy ADABIYOTLAR nashr etildi. Ushbu maqolada

ilk bor K. Nordström, L. Dementiy, Y. Povarenkov kabi psixolog olimlarning kasbiy identifikatsiya haqidagi nazariy qarashlarini o'tmishda kasb-kor egalarning ruhiy holatini ochib berishga tadbir etdik. Maqolani yozishda tarixiy tadqiqotlar olib borishning tarixiylik, tizimlilik, xolislik va determinizm kabi usullaridan foydalanildi. Xususan, ishda qiyosiy tarixiy, analiz, sintez, retrospektiv kabi umumfalsafiy metodlar qo'llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, bugungi kunda bo'lganidek qadimda va o'rta asrlarda shaharlar insoniyat tarixida o'ziga xos o'rin tutib, ular faqat ko'psonli aholini bir orada jamlabgina qolmay, aholining umumiy madaniyati va mafkurasi shakllanishida indikator vazifasini ham bajargan. Shu bois, jahon antropologiya fanida shaharlar tarixiga alohida e'tibor qaratiladi. Darhaqiqat, shaharlarning paydo bo'lishi, ularning ichki tuzilishi, rivojlanish dinamikasi va shaharlar jamiyatida urbanizatsiya masalalari har doim tarixchilar, sotsiolog, psixolog va iqtisodchi olimlar diqqat markazida bo'lgan. Ayniqsa, mamlakatlar qiyofasi jadal suratlarida o'zgarib borayotgan, shaharlar liberallashuv va gigantlashuv jarayonini boshidan kechirayotgan bugungi globallashuv davrida bu mavzu yanada dolzarflik kasb etmoqda. Ekspertlar rivojlangan davlatlarda aholisining asosiy qismi shaharlarda to'planib borayotganini nazarda tutib, kelajakda mamlakatlar taqdiri shaharlarga bog'liq bo'lib qolishi haqida gapirishmoqda. Sotsiologlar va iqtisodiyotchilarning ta'biricha, bu ulkan shaharlardan iborat bo'ladigan yangi dunyoning boshlanishidir [20]. Ba'zi ekspertlar hatto global dunyo va gigapolislar sivilizatsiyasi muqarrar suratda davlatlar va millatlarning yo'qolib ketishiga olib kelishini taxmin qilishmoqda. Masalan, Stokgolm iqtisodiyot maktabi professori K. Nordstryom davlatlar strukturalar sifatida yo'qlikka yuz tutayotganini ta'kidlagani holda, kelajak 50 yildan so'ng 219 mamlakatning o'rnini 600 ta shahar egallaydi, degan taxminni ilgari surgan [22].

Psixolog olimlarning fikriga ko'ra, zamonaviy jamiyatda iqtisodiy inqirozlar kasbiy sohaga ta'sir qiladi, chunki ko'p odamlar odatdagi ish joyini yo'qotadilar va o'zlarining kasbiy intilishlarini amalga oshira olmaydilar. Kasbiy o'ziga xoslikni yo'qotish kasbiy marginalizm fenomenini keltirib chiqaradi. Bu kasbiy rolda ishtirok etmaslik, o'zini o'zi inkor etish, kasbning shaxsiy ahamiyatini yo'qotish bilan tavsiflanadi [21]. Kasbiy marginalizm fenomeni jamiyat uchun xavflidir, chunki uning belgilari kasbiy faoliyat sifati va samaradorligining pasayishiga olib keladi. Kasbiy me'yorlar va qadriyatlarining rad etilishi talofotlar ko'lamini yanada kengaytiradi. Istalgan jamiyatdagi inqiroz hodisalari butun jamiyatning, xususan, professional jamiyatning marginallik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Keng miqyosdagi kasbiy inqirozlar esa, ommaviy ravishda professional marginallarni etishtiradi va butun jamiyatning yetuklik darajasini pasaytirgan holda o'ziga xos "mustahkam doira"ni shakllantirib jamiyatning inqirozlarni engib o'tish qobiliyatini pasaytiradi [16,59;19,155-157]. Oddiygina iqtisodiy buhronlar kasb hunar vakillarining ish faoliyatiga va pirovard natijada jamiyat hayotiga shu qadar ta'sir qilar ekan, keng hududlarga cho'zilib ketgan O'rta Osiyo shaharlarining arablar tomonidan istilo etilishi, shaharlarning vayron qilinishi, janglarda aholining boshqa qatlamlari bilan birga hunarmandlarning ham qirilib ketishi yoki qul sifatida olib ketilishi, keyingi bir asr davomida olib borilgan qarshilik harakatlaridagi yo'qotishlar, mahalliy aholi uchun butunlay yot, yangi mafkura, yangi din – islomning, yangi til – arab tilining joriy etilishi hunarmandlarning kasb koriga, ularning ish jarayoniga qanday ta'sir o'tkazdi, yangi mafkurani qabul qilish qay tarzda kechdi, degan savollar hamma davr tarixchilarini qiziqtirgan.

Jamiyatda o'zliklarni konstrukt qilish avvalo, jamiyatni jips tutib turish uchun muhim. Qadimgi davrda odamlarini bir-biriga bog'lab turishda geografik, etnik omillar asosiy o'rin tutgan bo'lsa, ilk o'rta asr shaharlarida urbanizatsiya jarayoni ancha jadal kechgani bois, ishlab chiqarish suratining oshishi, yangi hunarmandlar qatlami paydo bo'lishiga zamin hozirladi va natijada kasbiy o'zlik ham muhim ahamiyat kasb eta bordi. Mamlakatimiz hududida ko'p yillik arxeologik qazishmalar natijasida bugungi kunda o'rta asr shaharlarining joylashgan hududi (lokalizatsiyasi), ularning o'Ichamlari (topografiyasi) haqida aniq tasavvur va bilimlarga egamiz. Masalan, Buxoro shahri 35 ga, Samarqand 65 ga, Kofir Qal'a 16 ga, Marv 200 ga, Termiz 20 ga, Poykand 20 ga, Varaxsha 19 ga, Panjikent 13-14 ga hududdan iborat bo'lgan [11,6]. O'z vaqtida V.V. Bartold shaharlarining ijtimoiy-ma'muriy landshaftini belgilashda qo'lyozma manbalar ma'lumotlariga tayanib, arablar kelguniga qadar shaharlar asosan ikki qismdan, ark qo'rg'oni va shahristondan iborat bo'lganini e'tirof etgan [2,172]. Arablar kelgandan keyin shahar qo'rg'onlari atrofida hunarmandlar yashashiga mo'ljallab qurilgan rabotlar ham barpo etila boshlandi va ular shaharlar tarkibiga kirdi.

Avvalo shuni qayd etish kerakki, arablar kelishidan oldin O'rta Osiyoda biror bir din davlat dini darajasiga ko'tarilmagan bo'lib, keng ma'noda diniy bag'rikenglik hukm surardi. Shaharlarda buddistlar ziyoratgohlari, otashparastlar ibodatxonalari, xristianlar cherkovi yonma-yon faoliyat ko'rsatgan [11,124]. Eron va Vizantiya kabi yakka din hukmron bo'lgan mamlakatlardan quvg'inga uchragan turli

TARIX

mazhab va din vakillari ham O'rta Osiyo shaharlarida qo'nim topishgan [1,38]. Arab istilolari davrida shaharlar vayron bo'ldi, yoqib yuborildi, aholining katta qismi, jumladan, hunarmandlar qirilib ketdi. Keyinchalik, istilochilar tomonidan avvalo, eski mafkura tarafdorlari, zardushtiylik madaniyati va adabiyoti tashuvchilari shafqatsizlarcha qirib tashlandi. Arablar mahalliy aholiga tiqishtirilgan yangi din ustidan nazorat o'rnatish maqsadida mahalliy aholi xonadonlariga majburiy ravishda arab jangchilarini joylashtirishdi [5,53].

VIII asr o'rtalaridan boshlab arablar istilosining halokatli oqibatlarini bartaraf etilgandan so'ng, Movarounnahrda asta-sekinlik bilan ishlab chiqaruvchi kuchlar orta bordi. IX – XIII asr boshlarida Movaronnahr va Xurosonda kuzatilgan sanoat va madaniy inqilob natijalari, arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, birinchi navbatda, shaharlar aholisining kuchli demografik o'sishi, aholining va hunarmandlarning tor shahristonlardan keng rabodlarga o'tishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu hol shahar urbanizatsiyasining yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi. Masalan, V. A. Lavrov bu davrda yigirmaga yaqin shaharlar bo'lgan desa [4,52], keyingi tadqiqotlar birgina janubiy Qozog'istonning o'zida VI – VIII asrlarda 6 ta "shahar qal'a, 11 ta "rabotlari bor shaharcha" bo'lgani, VII – IX asrga kelib esa shaharlar soni 42 tadan oshganini tasdiqladi [10,142]. O.G. Bolshakovning e'tiroficha, bu davrda aholining 20-30 foizi shaharlarda yashashgan. Xarakterli tomoni shundaki, u davrda shaharlar nafaqat yirik savdo magistrallari atrofida, balki, ko'chmanchi qabilalar tiqis yashaydigan dasht kengliklariga ham kirib borgan. Shahar hayoti taraqqiyoti va evolyutsiyasining umummiy g'oyaviy chizgisini ilk boshda S.P. Tolstov bergandi. Unga ko'ra, "ilk o'rta asrlar davrida arablardan oldin ham, ular kirib kelganidan keyin ham aholining katta qismi dala-dashtlar o'rtasida, mustahkam qal'alarda yashashgan. Shaharlarda asosan feodal oqsuyaklar va ularning xizmatkorlaridan iborat aholining kichik qismi istiqomat qilgan. Asta-sekinlik bilan maxsus rabodlarda yashovchi hunarmandlar qatlami shakllanib borgan" [7,249].

Arablar islom mafkurasini singdirish uchun yerli aholiga muzika asboblari, oltin va kumushdan ishlangan idishlar, bolalar uchun sopoldan turli hayvonlar shaklida ishlangan o'yinchoqlarni ishlab chiqarish va bozorlarda sotish, erkaklarga ipakdan tikilgan qimmatbaho kiyimlar kiyishni ta'qiqlab qo'yishgan. Ko'rinadiki, VIII asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy voqelik o'sha davr hunarmandlarining kasbiy faoliyatiga alohida talablar qo'ygandi. Bu talablarning o'ziga xosligi hunarmanddan bilim, tajriba va original yechimlar talab qilardi. Tabiiyki, arablar kelishidan oldin ham shaharsozlik, me'morchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilik sohalarida boy madaniy an'analar merosxo'ri bo'lgan O'rta Osiyo hunarmand ustalari mavjud holatdan chiqish yo'llarini qidirganlar.

Manbalarda qayd etilishicha, islom ruhoniylari tomonidan quyilgan ta'qiqlar qisman bajarilgan bo'lsa, qisman chetlab o'tilgan yoki yangi bir hunar turining jadal suratda o'sishiga olib kelgan. Masalan, mutaxassislar aynan islom dinida dindorlar tomonidan qimmatbaho metallardan yasalgan idishlardan foydalanish taqiqlanganligi bois, VIII asr oxiridan boshlab Samarqandda va umuman O'rta Osiyoda kulolchilikda sirlangan idishlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligini e'tirof etishadi [3,28]. Odamlarning go'zallikka bo'lgan muhabbati shu yo'l bilan qondirildi. Chiroyli, bardoshli va arzon idishlarga bo'lgan katta talab texnik jihatdan zamonaviyroq sirlangan keramikaning keng tarqalishiga olib keldi. Ammo kulollarning birinchi tajribalari hali nomukammal edi. IX-X asrlarga kelib, kulollar o'z kasb-korlariga ijodiy yondoshgan holda, Varaxsha va Panjikent devor rasmlari uchun xos bo'lgan o'tkir kontrast ranglarning qadimiy kombinatsiyalarini sirlangan sopol buyumlarning bezaklariga ko'chirishga muvaffaq bo'lishgan. Shuningdek, VI- VIII asrlardagi metallarda yopiq va ochiq shakllarda bezak yasashning mashhur sxemasini ham sirlangan sopolarning bezaklarida foydalanishgan [6,31].

Islom dinining kirib kelishi bilan VIII-X asrlarda g'oliblar tili – arab tili hukmron mavqeni egallay boshladi. IX-X asrlarda epigrafik tasvirlar o'laroq, arab tilida uzun hikmatli iboralar va tilaklar yozilgan sirlangan idishlarni ma'naviy qadriyat va oilaviy boylik timsollari sifatida xonadonlarda saqlash va ishlatish urfga kirgan bo'lsa, XI asr boshlariga kelib, butunlay stilizatsiya qilingan va uning o'rnini bezak elementlari egallagan [13,246]. Yorqin, bir rangli sirlangan idishlar (ranglar - yashil, sariq, qora, oq, ko'k) bilan birga, bezak texnikasi ishlab chiqildi, unda cho'tka bilan bo'yash hatto geometrik va epigrafik naqshlarning ham nafisligini oshirdi. Bu davr badiiy hunarmandchiligida bezakli naqshlar va ular kombinatsiyalarining boyligi, ranglar va sirlarning jo'shqin jilosi, ommaviy ishlab chiqarish xarakteri bilan uyg'unlashib, uni amaliy san'atning sof halq tarmog'iga aylantirdi. Bu kulolchilikda etnik jamoani va shunga mos ravishda O'rta Osiyo mintaqasining yirik tarixiy-madaniy hududlari aholisining estetik talablari xususiyatini aks ettirishi bilan xarakterlanadi hamda bir qancha mahalliy maktablar mavjudligidan darak beradi [14,16-17]. IX - XI asrlarda kulolchilikda ustalar ob'ektiv voqelikni tasvirlash kabi qadimgi an'analarni davom ettirgan holda, o'z mahsulotlarini mahalliy fauna tasvirlari bilan bezaganlar. Ular qushlar, baliqlar, qo'chqor, ot, tuya, sher, jayron kabi zoomorfik tasvirlarni keng qo'llaganlar. Bu davrda O'rta Osiyoda

yashagan turli-tuman halqlarning mafkuraviy g'oyalarining xilma-xilligi hamda Somoniylar tomonidan diniy aqidalarning ma'lum darajada liberallashtirilgani diniy ta'qiqlarni biroz yumshashiga olib keldi. Natijada musulmonlar bilan birga, zardushtiylar, nestorian xristianlari, yahudiylar, manixeylar, jamoalari tinch-totuv yashaganlar. Bularning barchasi amaliy san'atning rivojlanishida g'oyaviy-madaniy muhitni ta'minlagan [12,72].

Arxeolog olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, tirik mavjudotlar qiyofasini tasvirlash islom dinining mavqei bilan bog'liqlikda kechgan. Ya'ni, Xalifalik qudartli bo'lgan VIII asrlarda tirik mavjudotlar san'at ob'ekti sifatida mavjud bo'lishni to'xtatgan, mavjud yaratilgan asarlar ayovsiz yo'q qilingan [6,75]. Movarounnahrda IX-X asrlarda xalifalikka qarshi kuchli harakatlar islom dinining mavqeini larzaga keltirdi va tirik mavjudotlar yana san'atda tasvirlanishni boshladi. Bu mintaqada turkiy halqlarning harbiy-ma'muriy ustunligining oshishi, qoraxoniylar qabilalarining vohalarda asta-sekin o'rnashib borishi, ayniqsa, XII asrning o'rtalarida Movarounnahrning umuman islomlashmagan qoraqitoylar tomonidan istilo yetilishi bilan izohlanadi. Islom an'analari shundan keyin qishloqlarda ham, shaharlarda ham o'z mavqeini yo'qotdi. Natijada yana avvalgidek turli dinlarga e'tiqod erkinligi ta'minlangan. Misol uchun, XII asr oxirida yaratilgan Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida agar xonadonda otashkada, xristian cherkovi yoki sinagog borligi ma'lum bo'lsa, xonani ijaraga berish qonuniymi yoki yo'qmi degan savol javob sifatida agar u shaharda bo'lsa, uni bunday maqsadlar uchun ijaraga berishning iloji yo'q, chunki shaharlarda islom hukmronlik qiladi, qishloqda esa unday emasligi tushuntirilgan [8,226]. Burhoniddin Marg'inoniy o'z asarida bu muammoning ko'p qirralarini sezilarli darajada yumshatgan, ammo savolning qo'yilishining o'zi qishloqlarda ham, shaharlarda ham rasmiy islomdan uzoqlashish jarayonlaridan dalolat beradi [18,79].

Jamiyatning ma'naviy sohasida qat'iy klassik islom me'yorlaridan ma'lum mafkuraviy og'ishlar kulolchilik buyumlari namunalarida ham ifodalangan. XI-XIII asrlardagi bo'yalgan sopol buyumlarning tarqalish vaqti va maydonini O'rta Osiyo hududida turkiy ko'chmanchi aholi ta'siri bilan bog'liqligini hisobga olgan holda o'rgangan tadqiqotchilarning nuqtai nazar haqiqatga yaqin [17,45]. Bular avvalo, aquarius tipidagi idishlar - "murg'obi", o'tga chidamli massadan yasalgan va qizil-jigarrang angobi bo'yog'i bilan qoplangan yoki ustiga chiziqlar, dog'lar, jingalaklar va chiziqlar bilan qoplangan, boshqa sirlanmagan idishlar massasidir. Bu tashqi yuzasiga qizil-jigarrang angobi bo'yoq bilan bo'yalgan ko'k sirlil idishlarga ham tegishli. Ko'k firuza sirlari bir vaqtning o'zida ko'chmanchi turkiy halqlarning samoviy xudosi – Tangrini ifodalagan [18,74-79].

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'rta Osiyoda islom dinining yoyilishidan boshlab rivojlangan o'rta asrlargacha bo'lgan davr ichida mintaqa aholisining o'zliklarida, xususan, kasbiy o'zligida sezilarli darajada o'zgarishlar bo'ldi. Qariyb besh yuz yillik davr mobaynida O'rta Osiyoning yirik shaharlaridagi yerlik aholi, ayniqsa, hunarmand ustalar yangi mafkuraga moslashgan holda qadimiy mahalliy va islomiy an'analarni o'zaro omuxtalashtirishga erishdi. Boshqacha aytganda, IX - XII asrlar hunarmandchiligi va amaliy san'atida ustalar ko'p asrlik an'anaviy tajribalarni davr talabiga moslashtirgan holda o'zlarining innovatsion yondashuvlari va yuksak mahoratlarini qo'shib, hunarmandchilikni yangi bosqichga ko'tara oldilar.

ADABIYOTLAR:

Kitoblar

1. Бартольд, В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // В.В. Бартольд. Сочинения. В 9-и томах. Т. I. – М.: Наука, 1963. Бартольд, В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // В.В. Бартольд. Сочинения. В 9-и томах. Т. I. – М.: Наука, 1963. – С. 763.
(Bartold, V.V. Turkestan in the era of the Mongol invasion // V.V. Barthold. Works. In 9 and volumes. T. I. - M.: Nauka, 1963. T. 1)
2. Бартольд, В.В. Работы по археологии, нумизматике, эпиграфике и этнографии // Сочинения. В 9-и томах. Т. IV. – М.: Наука, 1966. – С. 497.
(Bartold, V.V. Works on archeology, numismatics, epigraphy and ethnography // V.V. Barthold. Works. In 9 and volumes. T. IV. – M.: Nauka, 1966) Karabacek, J. Zur muslimanischen Keramik. Sammlung keramischen Objekten aus Neuen und Fernen Orient, Wien, 1887.
3. (Karabacek, J. On Muslim ceramics. Collection of ceramic objects from near and far Orient, Vienna, 1887)
4. Лавров, В. А. Градостроительная культура Средней Азии. – Москва, 1950. – С. 178.
(Lavrov, V. A. Urban planning culture of Central Asia. - Moscow, 1950)
5. Наршахий, Мухаммад. Тарихи Бухара (перевод, комментарии, примечания Ш. С. Камолiddина). – Ташкент, 2011. – С. 600.
(Narshahiy, Muhammad. Tarihi Bukhara (translation, comments, notes by Sh. S. Kamoliddin). – Tashkent, 2011)
6. Ташходжаев, С. Ш. Художественная поливная керамика Самарканда IX- начало XIII вв. – Ташкент: Издательство Фан, 1967. – С. 205.

TARIX

(Tashkhodzhaev, S. Sh. Artistic glazed ceramics of Samarkand IX - early XIII centuries. - Tashkent: Fan Publishing House, 1967)

7. Толстов, С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва, 1962. – С. 321.

(Tolstov, S. P. Along the ancient deltas of the Oxus and Jaksart. - Moscow, 1962)

8. Чехович, О. Д. Черты экономической жизни Мавераннахра в сочинениях по «Фикху» и «Шуруту» // Ближний и Средний восток. Товарно-денежные отношения при феодализме. – Москва, 1980. – С. 220.

(Chekhovich, O. D. Features of the economic life of Maverannakhr in writings on "Fiqh" and "Shurut" // Near and Middle East. Commodity-money relations under feudalism. - Moscow, 1980)

9. Якубовский, А. Ю. Завоевание арабами Средней Азии // История народов Узбекистана. В 2-х томах. Т. I. – Ташкент: АН УзССР, 1950. – С.

(Yakubovsky, A. Yu. Arab conquest of Central Asia // History of the peoples of Uzbekistan. In 2 volumes. T. I. - Tashkent: Academy of Sciences of the Uzbek SSR, 1950)

Ikki va undan ortiq mualliflar

10. Агеева, Е.И. Пацевич, Г. И. Из истории оседлых поселений городов южного Казахстана. Тр.ИИАЭ КазССР, т. V. – Алма Ата: Академия наук, 1958. – С. 147.

(Ageeva, E.I. Patsevich, G. I. From the history of settled settlements in the cities of southern Kazakhstan. Tr.IIAE KazSSR, v. V. - Alma Ata: Academy of Sciences, 1958)

11. Беленицкий, А. М., Бентович И. Б., Большаков О. Г. Средневековый город Средней Азии. – Л.: Издательство: Наука, 1973. – С. 390.

(Belenitsky, A. M., Bentovich I. B., Bolshakov O. G. Medieval city of Central Asia. - L.: Publisher: Nauka, 1973)

12. Ильясова, С. Р., Ильясов, Дж. Я., Имамбердиев, Р. А., Исхакова, Е. А. "Нет блага в богатстве..." Глазурованная керамика Ташкентского оазиса IX – XII веков. – Москва: Фонд Марджани, 2016. – С. 595.

(Ilyasova, S. R., Ilyasov, J. Ya., Imamberdiev, R. A., Iskhakova, E. A. "There is no good in wealth..." Glazed ceramics of the Tashkent oasis of the 9th – 12th centuries. - Moscow: Marjani Foundation, 2016)

13. Мирзаахмедов, Д. К., Мирзаахмедов, С.Д. Узбекистан. // Религии Центральной Азии и Азербайджана. Т. V. Ислам. – Самарканд: МИЦАИ, 2020. – С. 385.

(Mirzaakhmedov, D.K., Mirzaakhmedov, S.D. Uzbekistan. // Religions of Central Asia and Azerbaijan. T. V. Islam. - Samarkand: ICAI, 2020)

14. Пугаченкова, Г. А. На путях познания художественного наследия Средней Азии. // Изобразительное и прикладное искусство. – Ташкент: Издательство Фан, 1990. – С. 7-18.

(Pugachenkova, G. A. On the ways of understanding the artistic heritage of Central Asia. // Visual and applied arts. - Tashkent: Fan Publishing House, 1990)

Jurnallar

15. Большаков, О. Г. Ислам и изобразительное искусство // Труды Гос. Эрмитажа. Т. X. Л., 1969. – С. 142-153.

16. Ермолаева Е. П. Профессиональная идентичность и маргинализм; концепция и реальность (статья первая) // Психологический журнал, Т. 22. №4, 2001. – С51-59.

(Bolshakov, O. G. Islam and fine arts // Proceedings of the State. Hermitage. T. X. L., 1969)

17. Заднепровский, А. Ю. Средневековая расписная керамика Ферганы // КСИА. № 120. – Москва, 1969. – С. 39-45.

(Zadneprovsky, A. Yu. Medieval painted ceramics of Ferghana // KSIA. No. 120. - Moscow, 1969.)

18. Мирзаахмедов, Д. К., Матбабаев, Б. Х., Султанова, М. Н. Средневековая керамика Андижана // Археология Узбекистана № 1, 2010. – С.154-163.

(Mirzaakhmedov, D.K., Matbabaev, B.Kh., Sultanova, M.N. Medieval ceramics of Andijan // Archeology of Uzbekistan No. 1, 2010)

19. Поварёнков, Ю. П. Психологическая характеристика профессиональной идентичности. Кризис идентичности и проблемы становления гражданского общества // Сборник научных трудов. – Ярославль: ЯГПУ, 2003. – С. 154-163.

(Povarenkov, Yu. P. Psychological characteristics of professional identity. The crisis of identity and the problems of the formation of civil society // Collection of scientific works. - Yaroslavl: YaGPU, 2003)

Vebsayt

20. Асанов, Э. Инсоният келажги: Гигаполислар миллий давлатлар ўрнини эгаллайдими? <https://daryo.uz/k/2017/11/24/insoniyat-kelajagi-gigapolislar-milliy-davlatlar-ornini-egallaydim/>.

(Asanov, E. The Future of Mankind: Will Gigapolis Replace National States? <https://daryo.uz/en/2017/11/24/will-the-future-of-humanity-gigapolises-replace-nation-states?html/>)

21. Дементий, Л.И. Проблемы профессиональной идентичности и маргинальности в ситуации сознательной смены профессии (на примере получения второго высшего психологического образования). <https://docplayer.com/29400205-Problemny-professionalnoy-identichnosti-i-marginalnosti.html/>.

(Dementy, L.I. Problems of professional identity and marginality in a situation of a conscious change of profession (on the example of obtaining a second higher psychological education). <https://docplayer.com/29400205-Problemny-professionalnoy-identichnosti-i-marginalnosti.html/>)

22. Nordström, K. A. The City, The Power and The Glory. <https://www.helsinkidesignweek.com/feature/the-city-the-power-and-the-glory-kjell-a-nordstrom/>

(Nordström, K. A. The City, The Power and The Glory. <https://www.helsinkidesignweek.com/feature/the-city-the-power-and-the-glory-kjell-a-nordstrom/html/>)